



SURXONDARYO VILOYAT HUDUDIDA TARQALGAN DELPHINIUM SEMIBARBATUM TURINING BIOEKOLOGIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATI

Rajapova Nilufar Plato qizi¹,
Mahmudova Dilchehra Otabek qizi¹,
Normurodova Fotima Azim qizi¹
1. Termiz Davlat universiteti talabasi

Annotatsiya:

Ranunculaceae (Ayiqtovondoshlar) Oilasi Yer Yuzida 53 turkum 3710ta tur, O'rta Osiyoda 25ta turkum 206 ta tur, O'zbekistonda 20ta turkum 102 ta tur, Surxondaryoda 12ta turkum 70ta tur tarqalgan. Delphinium semibarbatum Ushbu tur Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo Viloyat hududlarining Tog'larning o'rta mintaqalarida o'tli yoki shag'alli qiyaliklarda uchraydi. Ushbu maqolada Delphinium semibarbatum turining bioekologiyasi, qo'llanishi ko'rib chiqadi. O'simlik haqida quyida biologik tavsif berib o'taman.

Kalit so'zlar: Delphinium semibarbatum, tur, turkum, tog', shag'al, qiyalik, isfarak.

Kirish:

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy biri hisoblangan Surxondaryo viloyati o'zining noyob iqlimi sharoiti, murakkab geologik tuzilmasi va boy floristik tarkibi bilan ajralib turadi. Ushbu hududa o'suvchi dorivor o'simliklarning ko'pligi bilan ham ajralib turadi aynan hududa tarqalgan.

Аннотация:

Семейство Ranunculaceae (лютиковые) насчитывает 53 рода и около 3710 видов по всему миру; в Средней Азии произрастают 25 родов и 206 видов, в Узбекистане — 20 родов и 102 вида, а в Сурхандарьинской области — 12 родов и 70 видов. Delphinium semibarbatum встречается в Ташкентской, Самаркандской, Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях, в среднегорных районах на травянистых или щебнистых склонах. В данной



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th November, 2025

статье рассматриваются биоэкология и распространение вида *Delphinium semibarbatum*, его использование в промышленности, лекарственные свойства и применение в медицине. Ниже приводится биологическое описание данного растения.

Ключевые слова: *Delphinium semibarbatum*, вид, род, горы, щебень, склон, исфарак.

Введение:

Сурхандарьинская область, расположенная на юге Узбекистана, отличается своим уникальным климатом, сложным геологическим строением и богатым флористическим разнообразием. Данная территория также выделяется большим количеством лекарственных растений, произрастающих в регионе.

Annotation: The Ranunculaceae family comprises 53 genera and 3,710 species worldwide; in Central Asia, 25 genera and 206 species; in Uzbekistan, 20 genera and 102 species; and in Surkhandarya region, 12 genera and 70 species are distributed. *Delphinium semibarbatum* occurs in the mid-mountain zones of Tashkent, Samarkand, Kashkadarya, and Surkhandarya regions, typically on grassy or gravelly slopes. This article examines the bioecology, distribution, industrial uses, medicinal properties, and medical applications of *Delphinium semibarbatum*. Below, the biological description of the species is provided.

Keywords: *Delphinium semibarbatum*, species, genus, mountain, gravel, slope, isfarak.

Introduction:

Surkhandarya region, located in the southern part of Uzbekistan, is distinguished by its unique climatic conditions, complex geological structure, and rich floristic composition. The area is also notable for the abundance of medicinal plants growing within its territory.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th November, 2025


Asosiy qism: Delphinium semibarm -yarimtukli isfarak o'simligi bilan tanishamiz.(2-rasm)

Biologik tafsif: Ranunculaceae oilasiga mansub ko'p yillik ildizpoyali o'simlik ,poyasining asosida zich joylashgan zangsimom- qo'g'irrang barg qinlarga ega.Poyasi bargsiz,kuchli,balandligi 40-100 sm va qalinligi 8-20 mm,deyarli zichroq mayda so'galli tukchalar bilan qoplangan ,ba'zan deyarli silliq ,pastki qismida yalpoqlashgan ,qizg'ish,yuqori yarimida ,to'pgul qismida ,ko'p shoxlagan , katta piramidasimon to'pguli hosil qilgan novdalari 45 gradus burchak ostida chiqadi.Barcha barglari ildizbo'g'zidan chiqqan ,yirik,kalta yalpoqlashgan ,odatda so'galli bandchalarda,2-3 baravar barg yaprog'idan kalta ,yaprog'ining uzunligi 18-50 sm va eni 20-60 sm ,dumaloq -buyraksimon,chetlari bo'ylab biroz to'lqinsimon ,buyraksimon asosi bilan, ostki qismida uchta sosiy ajralib turuvchi tomirlari bor ,ikki tomoni yoki faqat chekkasi va ostki qismida tomirlar bo'ylab juda zich mayda sugallar bilan qoplangan. Gullari tutam bo'lib uzun gulbandlardan joylashgan ,pastki uchdan bir qismida yoki o'rtasida birikadi.Gulqo'rg'on barglari deyarli bir xil,uzunligi 15-20mm va eni 10-15mm, tuxumsimon burushgan,binafsha-jiggarang yong'oqchaga ega;qanotlarini kengligi yong'oqchaga teng yoki biroz toraygan ,binafsha-qizil,asosida va yuqorida yuraksimon,uyilgan,o'tkazuvchi bog'lamlari chetidan 0,5-1mm masofada o'tadi.

Fenologiyasi: May-iyul oylarida gullaydi va mevalaydi.

Ekologiyasi: Tog'larning o'rta mintaqalarida o'tli yoki shag'alli qiyaliklarda uchraydi.

Tarqalishi: Toshkent , Samarqand ,Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarda uchraydi.(1-rasm)



1-rasm. O‘zbekistonda tarqalgan *Delphinium semibarbatum* turining xaritada ko‘rinishi.

Tibbiyotda qo‘llanishi: Delsinium va boshqa isfarak alkaloidlari analogik ta’sirga ega , bu uning bir vaqtning o‘zida minevral sinapslarga (asab hujayrasi o‘simtasi shoxlarining tegib turish sohasi – aksoning boshqa hujayralar bilan)va markaziy asab tizimiga ta’siriga asoslangan .Uning faoliyasi individual mushaklarning falaji bilan ifodalanadi -quydagi tartibda yuzaga keladigan guruhlar: yuz, oyoqlar, qo‘llar, qorin mushaklari va oxirgi navbatda -diagramma.Xalq tabobatida isfarak barglari - astma va tutqanoqli yo‘tal, shuningdek ,qo‘zg‘atuvchi ,biriktiruvchi vosita sifatida ;gullari choy shaklida hayz ko‘rish kechikkanda va yangi o‘tining sharbati yaralarni davolash uchun ishlatiladi.



2-rasm. Delphinium semibarbatum-yarimtukli isfarak.

Ogohlantirish: O'simlik zaharli hisoblanadi va ishlatilganda alohida e'tibor talab qilinadi.

Xo'jalikdagi ahamiyati: O'simlik gullaridan paxta, jun va ipak matolarni bo'yash uchun turg'un bo'yoq olinadi. O'tgan vaqtda yorug'lik filtirlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlatilgan.

Xulosa:

Surxondaryo viloyati hududida o'suvchi Delphinium semibarbatum turi o'zining bioekologik xususiyatlari va dorivor ahamiyati bilan e'tiborga loyiq o'simlik hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida bu tur asosan tog' oldi va adir zonalarida, unumdor, namlik yetarli bo'lgan tuproqlarda tarqalishi aniqlangan. O'simlikning kimyoviy tarkibida alkaloidlar, kondelfinlar va meliktin hamda boshqa biologik faol moddalarning mavjudligi uning dorivorlik xususiyatlarini belgilaydi. Delphinium semibarbatum ekstraktlari xalq tabobatida og'riqni kamaytiruvchi, yallig'lanishga qarshi va tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Shu bois, mazkur turning bioekologiyasini chuqur o'rganish, uni muhofaza qilish va farmatsevtik sohada qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari isfarak ildizsiz yer ustki qisimi sanoat qayta ishlovi uchun dorivor xom ashyo sifatida ishlatiladi.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th November, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Определитель растений Средней Азии. Т.4. Ташкент Фан, 1974.
2. Флора Узбекистана том 3. Издательство "Маънавият" Ташкент 1955.
3. Surxondaryo viloyati florasi kadastrı.
4. A. Ibragimov O‘simliklar geografiyasi. Darslik, Toshkent, 2024y. - 107 b.
5. Невский. К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботаник географическое невский С.А. Материалы к флоре Кугитангтау и его предгорий. В кн. Флора и систематика высших растений – М., Л.: Изд. АН СССР, 1937– С.
6. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана // Ботанический журнал, т. 101, вып. 10, 2016. – С. 1105-1132.
7. Хасанов Ф.О. Краткий очерк растительности Кугитанга // Тез. докл. юбил. науч. конф. молодых ученых и спец-тов посев 60-летию ЛКСМ Узб-на, 1985. – С. 167-168.
8. Ибрагимов А.Ж. Флора Сурханского государственного заповедника (хребет Кугитанг): Автореф. дис.канд. биол. наук. – Ташкент, 2010.(22 с).
9. Ибрагимов Акрам Жавлиевич. Сурхон Давлат Қўриқхонасининг Флораси (Кўхитанг Тизмаси), Дис канд. биол. наук., Тошкент-2010.
10. Тургинов О.Т. Бойсун ботаник-географик районининг флораси: Автореф. Дис канд. биол. наук. – Ташкент, 2016. (25 с)

Foydalangan internet saytlari

11. <https://powo.science.kew.org/>
12. <https://www.plantarium.ru/>
13. <https://www.The World Flora Online.org/>